SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR

ILMIY-TAHLILIY JURNAL

Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516 Available at www.uznauka.uz

“BODIFORS” PREPARATINI QORAKO‘L QO‘ZILARINING O‘SISH VA RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Yarqulova Ozoda Rustam qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, magistrant

Elektron pochta: ozarkulova@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Bodifors” preparatining qorako‘l qo‘zilarining o‘sishi va rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Aniqlanishicha, mazkur preparat moddalar almashinuvini faollashtiradi, gematologik ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi va o‘sish dinamikasini sezilarli darajada kuchaytiradi.*

Kalit so‘zlar: *Oqsil, metabolizm, Bodifors, leykotsit, eritrotsit, trombotsitlar, gemoglobin, konservatsiya, fermentlar, mikroelementlar, vitaminlar, BIOBASE BK6190 analizatori, Mindray BA-88A analizatori, nukleopeptid.*

ВЛИЯНИЕ ПРЕПАРАТА “БОДИФОРС” НА РОСТ И РАЗВИТИЕ КАРАКУЛЬСКИХ ЯГНЯТ

Яркулова Озода Рустам кизи

Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологий, магистрант

Электронная почта: ozarkulova@gmail.com

SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516 Available at www.uznauka.uz

Аннотация. В данной статье описаны результаты исследования, проведенного по изучению влияния препарата “Бодифорс” на рост и развитие каракульских ягнят. Установлено, что препарат активизирует обмен веществ, улучшает гематологические показатели крови и значительно повышает динамику роста.

Ключевые слова: белок, метаболизм, Bodifors, лейкоциты, эритроциты, тромбоциты, гемоглобин, консервация, ферменты, микроэлементы, витамины, анализатор BIOBASE BK6190, анализатор Mindray BA-88A, нуклеопептид.

EFFECT OF THE PREPARATION “BODIFORS” ON THE GROWTH AND DEVELOPMENT OF KARAKUL LAMBS

Yarkulova Ozoda Rustam kizi
Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnologies, Master's student
E-mail: ozarkulova@gmail.com

Abstract. This article presents the results of a study investigating the effect of the preparation “Bodifors” on the growth and development of Karakul lambs. It was found that the preparation stimulates metabolism, improves hematological parameters, and significantly enhances growth dynamics.

Keywords: protein, metabolism, Bodifors, leukocytes, erythrocytes, platelets, hemoglobin, preservation, enzymes, trace elements, vitamins, BIOBASE BK6190 analyzer, Mindray BA-88A analyzer, nucleopeptide.

SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516 Available at www.uznauka.uz

KIRISH. Bugungi kunda chorvachilikda o‘sish va rivojlanishni tezlashtirish hamda boqish vaqtini qisqartirish maqsadida turli xil oqsil tarkibli preparatlar va oziqa qo‘shimchalridan keng foydalanilmoqda. Oqsil tarkibli preparatlar organizmga murakkab ta’sir ko‘rsatib, immunobiologik xususiyatlarini, regenerativ jarayonlarni, patogen omillarga chidamliligini va himoya tizimlari funksiyalarini oshirish xususiyatiga ega. Bundan tashqari oqsil tarkibli preparatlar metabolizmni kuchaytiradi, yaxshilaydi, markaziy nerv tizimini boshqarib, ta’siri buzilgan bo‘lsa uni tiklaydi, organizmni chidamliligini oshiradi va funksiyalarini stimullaydi. Zaif va kasallikdan sog‘aygan hayvonlarning o‘sishi va vazni ortishini tezlashtiradi, uzoq muddat davom etayotgan teri kasalliklari bitishini tezlashtirish maqsadida, nafas a’zolari, oshqozon-ichak traktining surunkali kasalliklarida hamda organizmning himoya quvvatini oshirish uchun qo‘llaniladi [1, 2, 3].

Oqsil tarkibli preparatlar o‘ziga xosligi bo‘yicha olimlarning fikri turlicha [4, 5]. Biz o‘z ilmiy tatqiqotlarimizda qorako‘l qo‘zilarida oqsil tarkibli preparatlar ta’sirini o‘rgandik.

ASOSIY QISM (MUHOKAMA VA NATIJA). Tatqiqot maqsadi. Veterinariya amaliyotida qo‘llanilayotgan turli kelib chiqishga ega biostimulyatorlarning (tabiiy va sintetik) farmakodinamik xususiyatlarini o‘rganish, ularning hayvon organizmidagi fiziologik tizimlarga ta’sirini baholash hamda toksikologik xavfsizlik darajalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda preparatlarning samaradorligi, foydalanish shartlari va potensial xavflari bo‘yicha solishtirma xulosalar chiqarish.

Tadqiqot ob’ekti va uslublari. Tajribalarimiz Samarqand viloyati Nurobod tumanidagi “Olg‘a” hamda “Saxoba ota qorakul nasl” MChJ xo‘jaliklarida

SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516 Available at www.uznauka.uz

boqilayotgan qorako‘l qo‘zilarida bajarildi. Buning uchun nisbata nimjon bo‘lgan 5 oylik qo‘zilar tanlab olindi. Qo‘zilar 4 guruhga, har bir guruhda 5 boshdan bo‘lib, tajribalar o‘tkazildi.

Birinchi guruh nazorat guruhiga preparat qo‘llanilmadi, ikkinchi tajriba guruhdagi qo‘zilarga ASD fraktsiya 2 preparatidan 3 ml 30 ml suvga aralashtirgan holda haftasiga bir marta og‘iz orqali berildi. Uchinchi tajriba guruhi qo‘zilariga nukleopeptid preparatidan 3 ml dan haftasiga bir marta mushak orasiga yuborildi. To‘rtinchi tajriba guruhidagi qo‘zilarga bodifors preparatidan yuborildi.

Tajriba davomida har hafta qo‘zilar massasining o‘sishi va yem-xashak iste’moli hisobga olib borildi. Tajriba davomida qo‘zilar tirik vazni torozida o‘lchab borildi. Qonning morfologik ko‘rsatgichlari BIOBASE BK6190 gematologik analizatori yordamida aniqlandi. Tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash V.K.Kuznetsov usuli bilan amalga oshirildi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqot natijalarining tahlili (1-jadval) ko‘rsatishicha qo‘zilarning tirik vaznining o‘sishida sezilarli farqlar mavjud. Tajribalarning 28-kunida qo‘zilarning tirik vaznining o‘sishi tajriba boshiga nisbatan kg hisobida taqqoslandi. Farq esa $p<0,05$ darajada hisoblandi.

1-jadval

Tajribadagi qo‘zilarning tirik vaznining o‘sish dinamikasi, kg

Guruhlar va qo‘llanilgan preparatlar	Qo‘zilar tirik vaznining o‘zgarishi				
	Tajriba boshida	7 kundan so‘ng	14 kundan	21 kundan	28 kundan

SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516
Available at www.uznauka.uz

			so‘ng	so‘ng	so‘ng
	M±m	M±m	M± m	M±m	M±m
1-nazorat. -	25,41±0,24	25,68±0,18	26,19±0,12	26,79±0,22	27,33±0,21
2-tajriba. ASD 2	25,24±0,30	25,52±0,23	26,07±0,18	26,78±0,26	27,52±0,11
3-tajriba. Nukleopeptid	25,12±0,33	25,41±0,12	25,97±0,17	26,73±0,14	27,44±0,15
4-tajriba. Bodifors	24,9±0,37	25,18±0,16	25,77±0,21	26,57±0,19	27,38±0,22

2-tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan kg hisobida 0,360, 3-tajriba guruhida 0,400, 4-tajriba guruhida 0,560 kg yuqori ekanligini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, 2-tajrib guruhi 18,7%, 3-tajriba guruhi 20,8%, 4-tajrib guruhi yuqori o‘sish ko‘rsatkichiga, yani nazorat guruhiga nisbatan 29,1% ga erishgan.

Tadqiqotlar davomida qo‘zilarning qon ko‘rsatkichlari tahlili ham mos ravishda olib borildi. Hayvonlarning o‘sish va rivolanishida qon ko‘rsatkichlari muhim omil hisoblanadi. Hayvonlarning organ va to‘qimalarida hayotiy muhim vazifalarni bajaradi.

2-jadval

Qo‘zilar qon ko‘rsatgichlariga to‘qima preparatlarining ta’siri

SCIENCE REVEALS THE TRUTH
SCIENCE REVEALS THE TRUTH
SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516
Available at www.uznauka.uz

Guruhlar	Qon ko‘rsatkichlari	Tekshirish muddatlari				
		Tajriba boshida	**7 kun**	**14 kun**	**21 kun**	**28 kun**
		M±m	M±m	M± m	M±m	M±m
I-Nazorat	Eritrotsit mln/mkg	9,63±0,13	9,52±0,6	9,12±0,23	9,34±0,5	9,44±0,31
	Leykotsit ming/mkg	7,62±0.39	7,54±0.27	7,46±0.18	7,49±0.31	7,42±0.11
	Gemoglobin g/l	118,0±0,56	118,0±0,12	117,0±0,38	116,0±0,23	113,0±0,37
II	Eritrotsit mln/mkg	8,80±2,9	8,62±1,6	8,34±0,57	8,74±1,4	8,86±1,1
	Leykotsit ming/mkg	7,66±0,23	7,45±0,12	7,16±0,28	7,34±0,31	7,72±0,13
	Gemoglobin g/l	125,0±1,06	124,0±0,6	126,0±1,3	126,0±0,25	127,0±1,2
III	Eritrotsit mln/mkg	9,11±0,54	8,31±0,14	9,32±0,23	9,52±0,5	9,71±0,32
	Leykotsit ming/mkg	8,52±0.21	8,32±0.11	8,68±0.36	8,51±0.13	9,14±0.26
	Gemoglobin g/l	119,3±0,84	117,1±0,14	119,8±0,27	126,3±0,12	127,2±0,41

SCIENTIFIC TRENDS IN MEDICINE - НАУЧНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ В МЕДИЦИНЕ – TIBBIYOTDA ILMIY TENDENSIYALAR
ILMIY-TAHLILIY JURNAL
Issue - 9(2026) / E-ISSN: 3030-3516
Available at www.uznauka.uz

I V	Eritrotsit mln/mkg	8,46±0,52	7,68±0,72	8,66±0,12	9,64±0,24	11,87±0,36
	Leykotsit ming/mkg	7,28±0,34	7,09±0,46	7,78±0,21	8,18±0,12	8,86±0,47
	Gemoglobin g/l	113,4±0,59	110,8±0,18	115,7±0,25	123,2±0,56	129,0±0,23

Tekshirishlar tahlili (2-jadval) bo‘yicha qo‘zilar qon ko‘rsatkichlarida sezilari farqlar borligini kuzatish mumkin. Jumladan tekshirishlarning oxiriga kelib, 2-tajriba guruhidagi qo‘zilarning qondagi eritrotsitlarning miqdori o‘rtacha 8,80±2,9 mln/mkg dan 8,86±1,1 mln/mkg gacha, leykotsitlar - 7,66±0,23 ming/mkg dan 7,72±0,13 ming/mkg gacha, gemoglobin - 125,0±1,06 g/l dan 127,0±1,2 gacha, 3-tajrib guruhida eritrotsitlar 9,11±0,54 mln/mkg dan 9,71±0,32 mln/mkg gacha, leykotsitlar - 8,52±0.21 ming/mkg dan 9,14±0.26 ming/mkg gacha, gemoglobin - 119,3±0,84 g/l dan 127,2±0,41 gacha, 4-tajrib guruhida eritrotsitlar 8,46±0,52 mln/mkg dan 11,87±0,36 mln/mkg gacha, leykotsitlar - 7,28±0,34 ming/mkg dan 8,86±0,47 ming/mkg gacha, gemoglobin - 113,4±0,59 g/l dan 129,0±0,23 gacha o‘zgarganligi hamda nazorat guruhidan farqli ravishda o‘sib borganligini ko‘rsatdi.

XULOSA. Bodifors preparati qo‘zilarni tirik vaznini o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Jumladan, bodifor preparatiqo‘llanilgan qo‘zilarni o‘sishi nazorat guruhiga nisbatan 29,1% ni tashkil etdi.

Bodifors preparatlari qisqa muddatda qo‘llanilganda ham qorako‘l qo‘zilarining o‘sish va rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi hamda eritrotsitlar va leykotsitlar sonini oshishiga, gemoglobin miqdorini ko‘tarilishiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Salimov Yu. Veterinariya farmakologiyasi.// O‘quv qo‘llanma. Toshkent-2019 yil.

2. Norboev Q.N., Bakirov B., Eshbo‘riev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari.// Darslik. Toshkent - 2007 yil – 22 b.

3. Соколов В.Д. Ветеринарная фармакология.// Учебник. Санкт-Петербург- 2010 год

4. Даричева Н.Н., Ермолаев В. А. Тканевая терапия в ветеринарной медитсине: Монография. – Ульяновск, Угсха, 2011. -168 с.

5. Зюбин И.Н и др. Неспесифические маститы сельскохозяйственных животных Забайкаьского края: //Монография– Чита, 2015.- 187 с.

6. Xoliqov A., Xatamov T. Veterinariya amaliyotida biostimulyatorlarning ahamiyati.//Veterinariya meditsinasi jurnali. Toshkent. 2021. № 2. 34-35 b.